

THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF HADITH IN TEACHING THE SUBJECT "TARBIYA " IN SECONDARY SCHOOLS

Atamurodova Rakhila

Dzhizak State Pedagogical University named after A.Kadyri, Associate Professor of Pedagogical Sciences
magister **Donisheva Osiyo**

Annotation: This article is devoted to the purpose of developing pedagogical tools and methods of using hadith in teaching pedagogy in secondary schools, as well as creating a modern methodology.

Key words: methodology, hadith, practice, standards, improvement, complex, development, staff, dedication, spiritual maturity.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o’rtta maktablarda tarbiya fanini o’qitishda hadislardan foydalanishning pedagogik vosita va usullarini rivojlantirish maqsadi va zamonaviy metodologiyasini yaratish amaliyotga joriy etishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: metodologiya, hadislar, amaliyot, standartlar, takomillashtirish, kompleks, taraqqiyot, kadrlar, fidoyilik, ma’naviy yetuklik.

Аннотация: Данная статья посвящена цели разработки педагогического инструментария и методов использования хадисов в преподавании педагогики в общеобразовательных школах, а также созданию современной методики.

Ключевые слова: методология, хадисы, практика, стандарты, совершенствование, комплекс, развитие, персонал, самоотверженность, духовная зрелость.

Mamlakatimizda jahon talablariga javob beradigan darajada ta’lim va tarbiya olishi hamda kasbhunar egallashi, fuqarolarimizning buniyodkorlik, ijodkorlik salohiyatini namoyon qilish uchun zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarmavjud. Yangi sharoitlardan kelib chiqib O’zbekiston Respublikasi qonunlariga, ta’lim bosqichlarining uzlusizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etib kelmoqda. Bu haqida Prezident Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O’zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda” .

Ta’lim va tarbiya jarayoni avvalgidek faqatgina xotirasini kuchaytirishni talab etmasdan, balki yaratuvchanlik faoliyatida hayotiy imkoniyatlarni rivojlantirish va uning o‘zgarishlariga moslashuvchan yangi, sog‘lom avlodning ijodiy shaxsini rivojlantirishni nazarda tutadi. Mustaqil mamlakatimiz taraqqiyoti va rivojining hamma jihatlari kishilarimizning axloqiy, shaxsiy yuksak insoniy fazilatlariga bog‘liqligini O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining nutq va asarlarida har tomonlama asoslab berdi. Shuni aytib o‘tish joizki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish o‘ta sharaflı vazifa ekanligini alohida ta’kidlab o’tdilar.

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563 2024: 7,805

eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 12, Issue 01 (2025)

Ma’naviy yetuklik o’z navbatida kishi ma’naviyati bilan bog’liq. Bu tushunchani bir qator olimlarimiz quyidagicha talqin qiladilar. Jumladan: “Ma’naviyat shaxs va millatning “aqli, qalbi”ni ifoda etadigan, tarix taqazosiga binoan uning turli tomonlari namoyon bo’ladigan, tabiat, jamiyat va insonning insoniylashuvi darajasini bildiradigan ruhiy idrok, ziyorak qalb olamidir”- deya talqin qiladi professor T.Mahmudov.

“Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nuri. Oliy haqiqat nuri bo’lib, shu sababli buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini “Haqiqat asrorining ganjası” deb ataganlar. Haq asrori esa shunday sehrli timsolki, uni tugal etishga ahli bashar qudrati yetishmaydi”.

“Tarbiya” fanini o’qitish zaruriyati. O’zbekiston ta’lim tizimida, jumladan, oliy ta’lim jarayonida “Tarbiya” fani asoslarini zamonaviy talablar asosida o’qitish va o’rganish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining mazkur fanni o’zlashtirish va uni o’qitishning metodikasini o’rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi: fanning asoslarini chuqur bilish; fanni o’qitishning ilg’or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash; tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o’rganib borish; inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o’rnini to’liq idrok etish; fan vositasida boshlang’ich sinf o’quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish; fanni o’qitish bo‘yicha individual pedagogik tajribaga ega bo’lish. Mazkur fanni o’rganish zaruriyati ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari uchun kasbiy talablardan hisoblanadi. Chunki bu fan gumanitar fanlar ichida tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish va samaradorligini o’rganib borish ishlarini muvofiqlashtiradi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Milliy o’quv dasturi” talablariga asosan o’qitiladigan fanlar aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumiga ajratiladi. Shu jihatdan umumiy o’rta ta’lim maktablari, ayniqsa, boshlang’ich ta’limda tarbiyaning mazmuni nisbatan o’zgaradi. Unga ko’ra, quyidagicha yondashuv amalga kiritilishi mo’ljallanmoqda: A) aniq fanlar: Matematika va uning takibiga kiruvchi fanlarni o’qitish vositasida o’quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish bilan tarbiya jarayoni amalga oshiriladi; B) tabiiy fanlar: Boshlang’ich ta’limda “Atrofimizdag’i olam”, “Tabiatshunoslik”(Science) fanlarini o’qitish vositasida o’quvchilarining mustaqil qarashlari, xohish va istaklarini to’g’ri tarbiyalash amalga oshiriladi; V) gumanitar fanlar: “Tarbiya”, “Ona tili va o’qish”, “Musiqa”, “Jismoniy tarbiya”, “Tasviriy san’at” fanlarini o’qitish vositasida o’quvchilarining aqliy, jismoniy va estetik tarbiyasi amalga oshiriladi. E’tibor berilsa, bundan keyin boshlang’ich ta’limda tarbiya jarayoni umumta’lim fanlarini o’qitish jarayonida amalga oshiriladi. Shu sababli bunday tarbiya jarayonini muvofiqlashtirib borish “Tarbiya” fani zimmasiga yuklanadi. Bundan tashqari, boshlang’ich sinflarda istisno tariqasida estetik, aqliy va jismoniy rivojlanishni nazarda tutuvchi tarbiyaviy tadbirlar maqsadli o’tkaziladi, shuningdek, bayramlar va tantanalar vositasida boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijtimoiy tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu jarayonni tashkil etish va amalga oshirish ishlari “Tarbiya” fani vositasida amalga oshiriladi, unda mazkur fan o’qituvchisi va Sinf rahbari mas’ul hisoblanadi. Bularning barchasi bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Tarbiya” fanini o’qitish zaruriyati, uning asoslarini o’zlashtirish va o’zlashtirilgan ko’nikmalarini amaliyotda qo’llay olish ko’nikmalarini egallashi taqozo etiladi. Shu sababli “Boshlang’ich ta’limda “Tarbiya” fanini o’qitish metodikasi” o’quv fani bo‘yicha o’zlashtiriladigan nazariy bilim, didaktik ko’nikma va amaliy kompetentsiyalar bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari uchun birlamchi talablar hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur bilim, ko’nikma va kompetentsiyalarini shakllantirish, ularni talabalarda tarkib toptirish va talabalarni kasbiy yo’naltirish masalalari ushbu fan vositasida amalsha oshirilishi ishlari tashkil etilmoqda. Kelgusida ushbu fanni o’zlashtirish natijalari bo‘yicha bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kompetentsiya darajasini aniqlash monitoringi o’rnataladi. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Tarbiya” fani bo‘yicha quyidagi malakalarga ega bo’lishi taqoza etiladi: a) fan asoslari bo‘yicha nazariy-

kasbiy bilimli bo‘lish; b) fanni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lish; v) fan vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash kompetensiyasini egallashi. Mazkur masalalar oliv pedagogik ta’lim jarayonida o‘zlashtirilishi taqoza etiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya jarayoni muhim pedagogik masalalardan biri bo‘lib, unda o‘qituvchi hozirgi talablarni hisobga olishi kerak. Shu jihatdan yuqorida ta’kidlangan Qarorda belgilanganidek, “Tarbiya” fanini o‘qitishda quyidagilarga e’tibor berish va ularni o‘zlashtirish zaruriyat hisoblanadi: davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish; o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish; umumta’lim fanlarini o‘qitishning printsiplial yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyiligi va uzlusizligini ta’minlash. Shunday qilib “Tarbiya” fani va unga oid me’yoriy hujjatlar oliv pedagogik ta’lim jarayonida talab darajasida o‘zlashtirilishi taqoza etiladi.

Inson tarbiyali bo’lmash ekan, ayniqsa, biz o’zbek xalqida uning bilimi ham qobilyati ham uni insonlar orasida o’z darajasini topishiga to’liq sabab bo’la olmaydi. Aytish mumkinki, tarbiya jarayoni dastlab insonning o’ziga bog’liq bo’lmay, dastlab bolaning ota-onasi va boshqa mas’ul shaxslar tomonidan amalga oshirilsa, keyinchalik u ulg’ayganidan so’ng ongli jarayonga aylanadi, chunki bola o’z aqlini tanib boshlagandanoq o’zini ma’lum narsalardan torta boshlaydi, bu uning yurish-turishida xulqida namoyon bo’ladi. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, “Yoshlik umrning bebafo davri. Ilm o’tda yonmaydigan, suvda cho’kmaydigan, hech kim sizdan aslo tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang! Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko’rgan to’siq va qiyinchiliklarni ko’rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib, voyaga yetyapsizlar. Yuksak maqsadlar yo’lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo’lishingiz kerak. Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas’uliyatni tom ma’nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga ishonaman.”¹ Yurtboshimizning yuqoridagi yoshlarga qarata aytgan so’zlaridan yosh avlodning tarbiyasiga yoshlikdan e’tibor berilishi kerakligiga yana bir bor amin bo’lamiz. Zeroki, Vatanimizda milliy madaniyatimizning o’ziga xosligini saqlash, o‘quvchilarni har jihatdan tarbiyalab kamol toptirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini doimo yodimizda saqlashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. http://rewiev.uz O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston yoshlari forumida so’zlagan nutqi
2. Al-Buxoriy, abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil, Al-adab-al Mufrad (Adab durdonalari): Tarjima, muqad va izohlar muallif Sh.Boboxonov-T.: «O’zbekiston»,
3. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi T.: «Aloqachi» 2001 y.
4. 13. Jumaniyozova M. Tarix fanlarida innovasion texnologiyalardan foydalanish.//Xalq ta’limi, 2006,
5. Jumaboyev. M, Bolalar adabiyoti. Toshkent: ”O’qituvchi”, 2008,